O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyasini yanada yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida qaror qilaman:

I. Ustuvor yo‘nalishlar

1. Quyidagilar korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning 2030-yilgacha bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

(a) davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashishning professional va samarali tizimini tashkil etish;

(b) korrupsiya oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va preventiv mexanizmlarni joriy etish orqali tizimli korrupsiyaviy holatlarni oldini olish;

(v) raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellektni joriy qilishni hamda ulardan samarali foydalanishni kengaytirish;

(g) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va muntazam takomillashtirib borish.

2. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

II. Korrupsiya omillarini aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish

3. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida preventiv mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilsin:

(a) korrupsiyani oldini olish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarida yagona huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirish hamda uslubiy yordam ko‘rsatib borish;

(b) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish;

(v) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va ulardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

(g) davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan vazifa va funksiyalarini raqamlashtirish bo‘yicha takliflar va minimal talablarni ishlab chiqish;

(d) “E-qaror” tizimida qabul qilinadigan hujjatlarni e’lon qilishda ochiqlikka oid qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralarni qo‘llash;

(j) xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda korrupsiyaviy omillar, shu jumladan, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash hamda oldini olish.

4. Belgilansinki, davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining faoliyati Agentlik bilan uzviy hamkorlikda tashkil etiladi. Bunda:

(a) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishga oid faoliyati Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi;

(b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari va ular xodimlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligi Agentlik bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadi;

(v) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xodimlari zimmasiga ularning vazifalari va funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

(g) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmaydi, bunda:

(i) samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi;

(ii) ustamalar miqdorini pasaytirish masalasi Agentlik roziligi bilan hal etiladi;

(d) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

(j) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xodimlari davlat organlari va tashkilotlarining o‘z mablag‘lari hisobidan Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-jadvalga asosan maxsus o‘quv kurslarida o‘qitiladi.

5. Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining mas’ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar joriy etiladi:

(a) yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma’lumot;

(b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi boshlig‘i lavozimi uchun mutaxassisligi bo‘yicha kamida 4 yillik, boshqaruv xodimlari uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

(v) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lish. Sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalariga nomzodlar zaxirasiga kiritiladi.

6. 2026-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari va tashkilotlarida 2030-yilgacha bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi joriy etiladi. Bunda:

(a) ushbu tizim birinchi navbatda Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi natijalariga koʻra “qoniqarsiz” deb baholangan davlat organlari va tashkilotlarida joriy etiladi;

(b) davlat organlari va tashkilotlarida Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-grafikka muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;

(v) Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimining belgilangan muddatlarda joriy etilmaganligi davlat organi yoki tashkiloti rahbari va oʻrinbosarlariga tizim joriy etilgunga qadar boʻlgan muddatda barcha ragʻbatlantirish toʻlovlari toʻxtatib turilishiga sabab boʻladi.

7. Agentlikka quyidagi huquqlar berilsin:

(a) korrupsiyaviy xavf-xatar va huquqbuzarlik darajasi yuqori boʻlgan davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari tuzilmasiga qoʻshimcha shtat birliklarini koʻpi bilan 2 yil muddatga joriy etish. Bunda:

(i) qoʻshimcha shtat birliklari Agentlik direktorining taqdimnomasiga asosan ushbu tashkilotlarning mavjud shtat birliklari doirasida joriy etiladi;

(ii) qoʻshimcha shtat birliklariga xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish Agentlik tomonidan amalga oshiriladi;

(b) davlat organlari va tashkilotlarida faoliyati xususiyatlariga mos boʻlgan “komplayens-nazorat” tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha takliflar va tashabbuslarni ishlab chiqish, sohalar va tarmoqlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish masalalari boʻyicha loyiha ofislarini tashkil etish. Bunda:

(i) loyiha ofislari Agentlik direktorining buyrugʻiga muvofiq Agentlik xodimlari, davlat organlari va tashkilotlari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari xodimlari hamda ekspert va mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi;

(ii) Agentlik direktorining davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini loyiha ofislariga jalb qilish haqidagi buyrugʻi bajarilishi majburiy hisoblanadi;

(iii) davlat organlari va tashkilotlari xodimlari loyiha ofisi faoliyatiga jalb etilgan davrda ularning oylik ish haqi va boshqa barcha qoʻshimcha toʻlovlari saqlab qolinadi;

(iv) loyiha ofisi faoliyatiga jalb etilgan davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari, ekspert va mutaxassislarga oʻrganish olib borilayotgan davlat organi yoki tashkilotining budjetdan tashqari jamgʻarmasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoʻshimcha haq toʻlanishi mumkin.

8. Agentlik amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish va ulardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha masʼul organ etib belgilansin. Bunda:

(a) davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish natijalari boʻyicha hujjatlar Agentlikka taqdim etiladi;

(b) 2027-yildan boshlab Agentlik tahlillar asosida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishning davlat organlari uchun majburiy bo‘lgan yillik reja-grafigini har yili 1-aprelga qadar tasdiqlaydi va e’lon qiladi;

(v) yillik reja-grafigi ijrosi natijalari haqidagi axborot Agentlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib boriladi.

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yaxlit tizimni tashkil etish

9. Agentlik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, ilmiy muassasalar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining doimiy hamkorligiga asoslangan Korrupsiyaning oldini olishning yaxlit tizimi (keyingi o‘rinlarda — Korrupsiyaning oldini olish klasteri) joriy etilsin.

10. Belgilansinki, Korrupsiyaning oldini olish klasteri doirasida:

(a) huquqni muhofaza qiluvchi organlar Agentlikni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida aniqlangan korrupsiyaviy omillar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar bo‘yicha tahliliy va statistik ma’lumotlar bilan ta’minlaydi;

(b) Agentlikka Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan moliyaviy nazorat va auditni amalga oshirishda davlat xaridlari, manfaatlar to‘qnashuvi, moliyaviy xavf-xatarlar yuzasidan o‘tkazilgan tahlillar va o‘rganish natijalari bilan axborot tizimi orqali tanishishga ruxsat beriladi;

(v) 2-ilovadagi ilmiy muassasalar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilmiy tahlillarni qiladi, Agentlikning buyurtmasiga asosan ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqadi, malaka oshirish dasturlarini tashkillashtiradi;

(g) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tizimdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni har chorakda Agentlikka taqdim etib boradi;

(d) fuqarolik jamiyati institutlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jamoatchilik nazorati, shu jumladan, jamoatchilik eshituvi hamda monitoringi, jamoatchilik fikrini o‘rganishni amalga oshiradi.

11. Agentlik:

(a) to‘plangan ma’lumotlar tahlili asosida:

(i) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha manzilli va natijaga yo‘naltirilgan davlat siyosatini, shu jumladan, sohaga oid strategiyalar, metodologiya va standartlarni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

(ii) korrupsiyaviy omillar va xavf-xatarlarni tizimlashtirish mezonlarini ishlab chiqadi va guruhlarga ajratadi;

(iii) korrupsiyaviy omillar va xavf-xatarlarni bartaraf qilish mexanizmlari va ular bo‘yicha mas’ul ijrochilarni belgilagan holda chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqadi;

(b) mamlakatda korrupsiya holatini monitoring qiladi, korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha manzilli tahlillar olib boradi;

(v) davlat organlari va tashkilotlarining vazifalaridagi korrupsiyaviy omillar hamda tizimli muammolarni aniqlab, ularni raqamlashtirish va bartaraf qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritib boradi;

(g) Korrupsiyaning oldini olish klasteri ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

12. Korrupsiyaning oldini olish klasteri ishtirokchilari bo‘lgan davlat organlari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga har yarim yilda o‘z faoliyati yuzasidan axborot kiritib borsin.

IV. Davlat boshqaruvi sohasi faoliyatini raqamlashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlarni minimallashtirish

13. Quyidagi imkoniyatlarga ega “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi (keyingi o‘rinlarda — Dasturiy kompleks) 2026-yil 1-iyuldan boshlab sinov rejimida ishga tushirilsin:

(a) Korrupsiyaning oldini olish klasteri ishtirokchilari o‘rtasida tezkor ma’lumot almashish;

(b) davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini Dasturiy kompleks bilan integratsiya qilish orqali Agentlik faoliyatini axborot jihatdan ta’minlash;

(v) Dasturiy kompleksning “E-Komplaens” modulini ishga tushirish orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish;

(g) quyidagilarni nazarda tutuvchi sun’iy intellekt texnologiyalari:

(i) Dasturiy kompleks va boshqa axborot resurslaridagi ma’lumotlar tahlili asosida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularning oldini olishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish;

(ii) davlat xaridlarida ommaviy ofertaga munosabat bildirishda affillanganlik va manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini aniqlash va ishtirokchilarning ishtirokini avtomatik cheklash.

14. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkiga Dasturiy kompleksni joriy etish bo‘yicha yagona integrator funksiyasi yuklatilsin va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

(a) Dasturiy kompleksni ishlab chiqish va 2026-yil yakuniga qadar to‘liq rejimda ishga tushirish;

(b) Dasturiy kompleksni boshqa davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta’minlash;

(v) Agentlik faoliyatida raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish va standartlarni joriy etish.

15. Raqamli texnologiyalar vazirligi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Dasturiy kompleks ishlab chiqilishini ta’minlasin.

16. Belgilansinki, respublika va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarni “E-qaror” elektron tizimida asossiz ravishda e’lon qilmaslik, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish deb hisoblanadi hamda tegishli javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

17. Ushbu Farmon bilan yuklatilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib:

(a) Agentlikning mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan ma’muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish, shu jumladan, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy etishga mas’ul bo‘lgan “Xavf-tahlil markazi” tashkil etilsin;

(b) Xavf-tahlil markaziga ma’lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanishga ruxsat berish, shuningdek, Agentlikning elektron so‘roviga muvofiq ma’lumotlar taqdim etish choralarini ko‘radigan davlat organlari va tashkilotlarining ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

V. Agentlik va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari

18. Belgilansinki:

(a) Agentlikka unga yuklatilgan vazifalarni to‘liq, sifatli va samarali amalga oshirish bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘liq yoki qisman taqdim etmaslik yoxud noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etish, zarur axborot tizimlarini integratsiya qilishga asossiz qarshilik ko‘rsatish Agentlikning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish deb baholanadi;

(b) davlat organlari va tashkilotlari markaziy apparatining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalariga tizim tashkilotlariga qonunbuzilish holatlarini oldini olish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatma va ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish huquqi beriladi.

19. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni mehnat qonunchiligining buzilishi, shu jumladan, mehnat faoliyatida ta’qib, tazyiq holatlaridan himoya qilish maqsadida, Agentlik tomonidan himoya orderini taqdim etish amaliyoti joriy qilinadi.

20. 2026-yildan boshlab har yili Davlat budjeti parametrlarida alohida modda bilan Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish uchun kamida 10 mlrd so‘m mablag‘ ajratilishi nazarda tutilsin. Bunda mablag‘larning 10 mlrd so‘mdan oshadigan qismi Agentlikning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq ajratiladi.

VI. Tashkiliy chora-tadbirlar

21. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to‘g‘risida nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

22. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda faol fuqarolarni rag‘batlantirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni ta’sis etilsin.

Agentlik har yili 9-dekabr — Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni arafasida “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlashni yo‘lga qo‘ysin.

23. Agentlik uch oy muddatda Agentlik geraldik belgisi — emblemasi namunasi va tavsifi hamda undan foydalanish tartibini tasdiqlasin.

VII. Farmon ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilsin.

25. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A.E. Burxanov belgilansin.

26. Farmon ijrosi uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Komplayens xizmati boshlig‘i E.T. Yuldashev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 30-dekabr,
PF-270-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoniga
1-ILOVA

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ul ijrochilar
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Milliy sertifikatlashtirish** menejment tizimini joriy etish.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Milliy sertifikatlashtirish** menejment tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash choralarini ko‘rish. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Milliy sertifikatlashtirish** tartibi to‘g‘risidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi: (a) davlat organlari va tashkilotlarida	2026-yil aprel	Ijrochilar mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi

		korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini baholash va sertifikatlash tartibi; (b) sertifikatning amal qilishini to‘xtatib turish va bekor qilish asoslari hamda tartibi; (v) belgilangan muddatlarda sertifikat olinmaganligi, sertifikat amal qilishi to‘xtatib turilganligi va bekor qilinganligi oqibatida davlat organlari yoki tashkilotlari rahbariga tizim joriy etilgunga qadar bo‘lgan muddatda barcha rag‘batlantirish to‘lovlarini to‘xtatib turish tartibi.			
2.	Korrupsiyani oldini olishning yaxlit tizimini samarali tashkil etish.	1. Korrupsiyani oldini olish klasteri ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik tartibini belgilovchi qo‘shma qaror loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Monitoring qilish va ma’lumotlarni taqdim etishni ta’minlovchi yagona elektron platformani ishga tushirish.	2026-yil mart 2026-yil iyun	Talab etilmaydi Ijrochilar mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Hisob palatasi, manfaatdor vazirlik va idoralar

3.	“E-qaror” tizimida qabul qilinadigan hujjatlarni e’lon qilishda ochiqlikka oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish.	Agentlikka Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron — “E-qaror” tizimida qabul qilinadigan hujjatlar bilan to‘siqsiz tanishish va monitoring olib borish imkoniyatini yaratish.	2026-yil yanvar	Talab etilmaydi	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
4.	Davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining faoliyatini Agentlik bilan uzviy hamkorlikda tashkil etish choralarini ko‘rish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish: (a) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda Agentlikka bo‘ysunishi va uning oldida hisobdor bo‘lishi; (b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xodimlari zimmasiga ularning vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqmaydigan	2026-yil mart	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

		topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmasligi; (v) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmasligi; (g) samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiquvchi ustamalar tegishli lavozim uchun nazarda tutilgan maksimal miqdorda tatbiq etilishi, ustamalar miqdorini pasaytirish masalasi Agentlik roziligi bilan hal etilishi; (d) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi; (j) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xodimlari davlat organlari va tashkilotlarining o‘z mablag‘lari hisobidan Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan			

		reja-jadvalga asosan maxsus o‘quv kurslarida o‘qitilishi.			
5.	“Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksini ishga tushirish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksini ishga tushirish: (a) Korrupsiyaga qarshi kurashish klasteri ishtirokchilari o‘rtasida tezkor ma’lumot almashish; (b) davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi bilan integratsiya qilish orqali Agentlik faoliyatini axborot jihatidan ta’minlash; (v) “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksining “E-Komplaens” modulini ishga tushirish orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarini to‘liq raqamlashtirish; (g) korrupsiyani oldini olish faoliyatiga quyidagi	2026-yil iyun	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, “UZINFOCOM” MCHJ, manfaatdor vazirlik va idoralar

		imkoniyatlarga ega sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish: (i) “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi va boshqa axborot resurslaridagi ma’lumotlarning tizimli tahlili asosida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish; (ii) davlat xaridlarida ommaviy ofertaga munosabat bildirishda affillanganlik va manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini aniqlash va ishtirokchilarning ishtirokini avtomatik cheklash.			
6.	Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirishda korrupsiya xavf-xatarlarining oldini olish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish: (a) baholash guruhlarining, shu jumladan, baholash jarayoni davomidagi hisobotlarni hamda shartnomalarni	2026-yil aprel	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Bosh prokuratura

		tuzish to‘g‘risidagi qarorlarni qonunchilik talablariga rioya etilganligi va ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsizlik yoki soxtalik belgilari mavjudligi nuqtai nazaridan Agentlik tomonidan tekshirish; (b) qonunbuzilish holatlari yoki qalbakilashtirish belgilari aniqlanganda, tegishli vazirlik va idoralarga tender jarayoni yoki shartnomani amalga oshirish (moliyalashtirish)ni to‘xtatib turish haqida Agentlik tomonidan taqdimnoma kiritish; (v) tender jarayonini davom ettirish to‘g‘risidagi qarorlarni Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq qabul qilish.			
7.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish: (a) Janubiy Koreyaning “Clean	2026-yil iyun	Davlat budjeti mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi,

	shaxslarni rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish.	Portal” (“Shaffof portal”) platformasining tajribasi asosida “E-Anticor.uz” dasturini takomillashtirish orqali korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tizimini raqamlashtirish; (b) Agentlikni rag‘batlantirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organ sifatida belgilash; (v) rag‘batlantirish tizimini Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasi orqali tashkil etish.			Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
8.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining taqdimnomalarini ko‘rib chiqmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarini belgilash.	1. Agentlikning taqdimnomalarini ko‘rib chiqmaganlik, shu jumladan, o‘z vaqtida yoki to‘liq ko‘rib chiqmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun	2026-yil mart	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

		loyihasini ishlab chiqish. 2. Qonun loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Qonun loyihasini ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.			
9.	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar haqida xabar berishning ichki kanallarini yuritish tartibini belgilash.	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar haqida xabar berishning ichki kanallarini yuritish tartibini belgilovchi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.	2026-yil aprel	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi
10.	Davlat organida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni ikki yil ichida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan	Quyidagilarni nazarda tutuvchi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish:	2026-yil may	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi, Adliya vazirligi

	tashkilotlarga ishga qabul qilishda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olishning mezonlarini belgilash.	(a) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xulosa berish asoslari va tartibi; (b) xulosaning namunaviy shakli; (v) xulosa natijasi bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlar; (g) xulosa bo‘yicha shikoyat berish tartibi.			
11.	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishdagi vakolatlarini kengaytirish.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalariga manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganlik uchun ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish vakolatini berish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun	2026-yil mart	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

		loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
12.	Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish tartibini takomillashtirish.	Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga qonunga xilof ta’qib, tazyiq va mehnat qonunchiligining boshqacha tartibda buzilishi holatlaridan himoya qilishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga qonunga xilof ta’qib, tazyiq, shuningdek, noqonuniy intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llash, ishdan bo‘shatish kabi holatlardan himoya orderi berish va boshqa shakldagi himoya choralari nazarda tutiladi.	2026-yil may	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi
13.	Investitsiya loyihalari doirasida ajratiladigan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi jarayonida ochiqlik	Ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda	2026-yildan boshlab	Talab etilmaydi	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi,

	va oshkoralikni ta’minlash.	mablag‘lar sarflanishida ochiqlikni ta’minlash mexanizmi sifatida mahalla va jamoatchilik faollari ishtirokida Tashabbuskor guruhlarni shakllantirish amaliyotini joriy etish.			Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
14.	Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari faoliyatini takomillashtirish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari ishini yuritish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari kotibiyatlariga mavjud shtatlar doirasida bir nafardan xodim (jami 14 nafar) ajratish.	2026-yil may	Talab etilmaydi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
15.	2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasi doirasida manzilli choralarni ko‘rish.	1. Davlat xaridlari ustidan nazorat qiluvchi idoralarning funksiyalarini va vakolat doirasini aniq belgilash. 2. Yagona axborot tizimida xarid qatnashchilari takliflarini baholash hamda davlat xaridlari ustidan nazorat qilishda	2026-yil dekabr	Talab etilmaydi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi

		sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni joriy qilish. 3. Davlat xaridlari ustidan nazorat qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo‘yicha ma’lumot almashinuvini avtomatlashtirish va natijalarni yagona reyestrda qayd etish.			
16.	“Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishonini ta’sis etish.	“Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi idoraviy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil mart	Ijrochilar mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi
17.	Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro akademiyasi (IACA)ga qo‘shilish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro akademiyasi (IACA)ga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi choralarini ko‘rish.	2026-yil avgust	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Tashqi ishlar vazirligi
18.	BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, xalqaro tashkilotlar tomonidan O‘zbekistonga bildirilgan tavsiyalar hamda boshqa	Elektron platforma doirasida: BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablari bajarilishini monitoring qilish	2026-yil iyun	Ijrochilar mablag‘lari, xalqaro moliya institutlarining grant mablag‘lari	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi

	xalqaro standartlarning bajarilishini monitoring qilish bo‘yicha elektron platformani ishga tushirish.	imkoniyatini yaratish; xalqaro tashkilotlar tomonidan O‘zbekistonga berilgan tavsiyalar, hisobotlar va boshqa ma’lumotlarni joylashtirish; fuqarolik jamiyati institutlari hamda keng jamoatchilik tomonidan tayyorlangan O‘zbekiston bo‘yicha monitoring hisobotlarini platformaga joylashtirish imkoniyatini yaratish; platformani ma’lumotlar bilan to‘ldirish yuzasidan idoralararo ishchi guruhini shakllantirish; ma’lumotlarni doimiy yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish.			
19.	Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishning manbalarini kengaytirish.	Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalarini, shu jumladan, Agentlik tashabbusi bilan	2026-yil aprel	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi

		huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan materiallar asosida undiriladigan mablag‘lar, shuningdek Agentlik tomonidan tuzilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar asosida undiriladigan ma’muriy jarimalar hisobidan kengaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
20.	Agentlik xodimlarining malakasi, bilimi va ko‘nikmalarini baholash orqali lavozimiga muvofiqligini aniqlash hamda xodimlar tarkibini qayta shakllantirish bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2026 yanvar — mart	Talab etilmaydi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoniga
2-ILOVA

Korrupsiyaning oldini olish klasteri doirasida faoliyat yuritadigan ilmiy muassasalar

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

2. Toshkent davlat yuridik universiteti

3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

4. O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoniga
3-ILOVA

Xavf-tahlil markaziga ma’lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanishga ruxsat berish, shuningdek, Agentlikning elektron so‘roviga muvofiq ma’lumotlar taqdim etish choralarini ko‘radigan davlat organlari va tashkilotlarining

RO‘YXATI

I. Xavf-tahlil markazi tomonidan ma’lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanish ruxsat etiladigan tashkilotlar:

1. Hisob palatasi
2. Boshqaruv samaradorligi agentligi
3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
4. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
5. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
6. Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari
7. Suv xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari
8. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
9. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda uning tizim tashkilotlari
10. Transport vazirligi
11. Energetika vazirligi
12. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi
13. Raqamli texnologiyalar vazirligi
14. Sog‘liqni saqlash vazirligi
15. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
16. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
17. Sport vazirligi
18. Madaniyat vazirligi
19. Adliya vazirligi
20. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
21. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
22. Yoshlar ishlari agentligi
23. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
24. Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi
25. Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi

26. Migratsiya agentligi
27. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi
28. Soliq qo‘mitasi
29. Energiya samaradorligi milliy agentligi
30. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi
31. Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi
32. Ichki ishlar vazirligi
33. Bojxona qo‘mitasi
34. G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi
35. Milliy statistika qo‘mitasi
36. Kadastr agentligi
37. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
38. Majburiy ijro byurosi

II. Xavf-tahlil markazining elektron so‘roviga muvofiq ma’lumotlar bazasi bilan o‘zaro axborot almashuvini yo‘lga qo‘yadigan tashkilotlar:

39. Markaziy bank (offlayn shaklda ma’lumot taqdim etiladi)
40. Barcha tijorat banklari (offlayn shaklda ma’lumot taqdim etiladi)
41. “Navoiy KMK” AJ
42. “Olmaliq KMK” AJ
43. “O‘zbekneftgaz” AJ
44. “O‘ztransgaz” AJ
45. “Hududgazta’minot” AJ
46. “UzGasTrade” AJ
47. “Muborakneftgazmontaj” AJ
48. “Buxoro NQIZ” MCHJ
49. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ
50. “Raqamli transformatsiya markazi” MCHJ
51. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ
52. “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ
53. “Angren IES” AJ
54. “Yangi Angren IES” AJ
55. “Navoiyuran” DK
56. “Navoiy KMK” jamg‘armasi” DM
57. “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ
58. “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ
59. “Respublika ko‘p tarmoqli agrosanoat birjasi” AJ
60. “Toshkent” respublika fond birjasi” AJ
61. “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” AJ
62. “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” DUK
63. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
64. “Uzbekistan airways” AJ
65. “Uzbekistan airports” AJ
66. “O‘zavtosanoat” AJ
67. “O‘zkimyosanoat” AJ

68. “Navoiyazot” AJ
69. “Farg‘onaazot” AJ
70. “O‘zdonmahsulot” AK
71. “O‘zbektelekom” AK
72. “O‘zmetkombinat” AJ
73. “O‘zbekgidroenergo” AJ
74. “O‘zagroservis” AJ
75. “O‘zagrolizing” AJ
76. “O‘zagrosug‘urta” AJ
77. “O‘zbekinvest” EISK” AJ
78. “O‘zsuvta’minot” AJ
79. “Toshshahartransxizmat” AJ
80. O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiradigan davlat maqsadli jamg‘armalari
81. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
82. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari

Izohlar:

mazkur ro‘yxatdagi vazirlik, idora va tashkilotlarda yangi ma’lumotlar bazasi yoki dasturiy ta’minot ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilganda, Xavf-tahlil markazining so‘roviga ko‘ra yangi ma’lumotlar bazasi va dasturiy ta’minotlar Xavf-tahlil markaziga taqdim etiladi hamda integratsiya qilinadi;

vazirlik, idora va tashkilotlarning real vaqt rejimida ma’lumotlar bazasidan foydalanishga ruxsat dasturiy kompleks funksiyalariga va ma’lumotlar bazasi tarkibiga aralashish huquqisiz beriladi;

Xavf-tahlil markazining so‘roviga ko‘ra hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlar va vazifalar doirasida vazirlik, idora va tashkilotlar bilan ma’lumotlar almashish amalga oshiriladi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Xavf-tahlil markaziga davlat xaridlarining elektron tizimi operatorlarining ma’lumotlar bazasidan real vaqt rejimida foydalanish imkoniyati yaratilishini ta’minlaydi.

Mazkur ro‘yxatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari bilan kelishilgan holda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoniga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to‘g‘risida

NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

2. Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli milliy darajadagi davlat organi hisoblanadi.

3. Agentlik o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

4. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir.

5. Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

6. Agentlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qaror va buyruqlari barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7. Agentlik yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga va blanklarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, chet el valyutasidagi bank hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

8. Agentlikning rasmiy nomlanishi:

(a) davlat tilida to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, qisqartirilgan nomi — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

(b) ingliz tilida to‘liq nomi — The Anti-corruption agency of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Anti-corruption agency;

(v) rus tilida to‘liq nomi — Agentstvo po protivodeystviyu korrupsii Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Agentstvo po protivodeystviyu korrupsii.

9. Agentlikning joylashgan manzili (pochta manzili): 100070, Toshkent shahri Sh.Rustaveli ko‘chasi 8A-uy.

2. Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

(a) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

(b) mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

(v) davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

(g) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning zamonaviy va ta’sirchan vositalarini joriy etish;

(d) normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minlash;

(j) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

(z) davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali ishlashini tashkil etish;

(i) davlat xizmatiga halollik standarti hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etish standartlarini joriy etishga ko‘maklashish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

(k) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish;

(l) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish;

(m) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

11. Agentlik o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

(a) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish sohasida:

(i) ilg‘or tajribalarni hisobga olgan holda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;

(ii) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha strategiya va davlat dasturlarini, shuningdek, hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqadi, amalga oshirishni tashkil etadi va ijrosini monitoring qilib boradi;

(iii) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish uchun vakolatli organlarga kiritadi;

(iv) har yili ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruzani tayyorlaydi hamda uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

(v) xalqaro standartlarni va ilg‘or xorijiy amaliyotni joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

(vi) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

(b) mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

(i) korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarni, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazadi, shu jumladan, sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlar o‘tkazilishini tashkillashtiradi;

(ii) korrupsiya holatini o‘rganish bo‘yicha tadbirkorlar va aholi o‘rtasida so‘rovlar, shu jumladan, anonim so‘rovlar o‘tkazadi;

(iii) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

(v) davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

(i) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo hamkorlik mexanizmlarini shakllantiradi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

(ii) davlat organlari va tashkilotlari tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bilan bog‘liq vazifalar ijro qilinmagan taqdirda ularning mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

(iii) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) joriy etilishi va samarali faoliyat yuritishini tashkil etadi;

(iv) davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy jihatdan ta’minlaydi, ushbu bo‘linma xodimlarini stajirovkaga yuborish va attestatsiyadan o‘tkazish, o‘qitish va malakasini oshirish hamda sertifikatsiyalash ishlarini tashkil etadi;

(v) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlarni ko‘rib chiqish holatini o‘rganadi;

(vi) korrupsiya holatlariga doir axborotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

(g) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning zamonaviy va ta’sirchan vositalarini joriy etish sohasida:

(i) zamonaviy usullar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali va xalqaro standartlarga asoslangan vositalarini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

(ii) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etishda ijobiy natijalarga erishgan davlat organlari va tashkilotlarining tajribasini keng ommalashtiradi;

(iii) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

(iv) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholaydi va reytingini e’lon qiladi;

(v) fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalardagi korrupsiya darajasini baholaydigan korrupsiyani qabul qilish Milliy indeksini tuzishni tashkil etadi;

(d) normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minlash sohasida:

(i) normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazadi;

(ii) davlat organlari va tashkilotlariga normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha metodologik ko‘mak ko‘rsatadi;

(iii) normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga qarshi ekspertizasi tizimining samaradorligini tahlil qiladi hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

(iv) 2027-yildan boshlab:

normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha ekspertlar reyestrini yuritadi;

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini tahlil qiladi va monitoringini amalga oshiradi;

huquqni qo‘llash amaliyotidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlili asosida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishning yillik reja-grafigini har yili 1-aprelga qadar tasdiqlaydi va e’lon qiladi, shuningdek, uning ijrosi yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib boradi;

ekspertiza natijalari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tegishli taklif ishlab chiqish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlariga ko‘rsatma kiritib boradi;

(j) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

(i) fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini shakllantirishga va oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

(ii) korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini faol jalb etadi hamda ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda samarali faoliyat olib borishiga ko‘maklashadi;

(iii) korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy sheriklik dasturlarini shakllantiradi hamda amalga oshiradi;

(iv) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid materiallar, media kontentlar va axborotlar tayyorlanishi hamda tarqatilishini tashkil etadi;

(v) xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida fuqarolik jamiyati institutlari vakillari uchun seminar, trening va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi;

(vi) korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasida yoshlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari uchun maxsus kurslar ishlab chiqilishiga, mazkur auditoriyaning jalb etilishiga ko‘maklashadi;

(vii) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tadqiqot natijalarini inobatga olib, yangi o‘quv modullarini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritadi;

(z) davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali ishlashini tashkil etish sohasida:

(i) davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

(ii) davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki bo‘yicha deklaratsiyalarining haqqoniyligini va ishonchliligini tekshiradi;

(iii) qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish natijalari to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qiladi;

(i) davlat xizmatiga halollik standarti hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etish standartlarini joriy etishga ko‘maklashish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida:

(i) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilishi lozim bo‘lgan davlat xizmatchilari kontingentini shakllantiradi;

(ii) davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi bilimlarini doimiy oshirib borish bo‘yicha hamkorlikda o‘quv kurslarini tashkillashtiradi;

(iii) davlat fuqarolik xizmatchilari o‘rtasida yuqori kasbiy etika, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha kompleks reja va dasturlar ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini ta’minlaydi;

(iv) manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etish standartlarini joriy etishga qaratilgan ta’sirchan choralarni ko‘radi, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(v) manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq axborotni va materiallarni davlat organlari va tashkilotlaridan so‘rab oladi va o‘rganadi;

(vi) manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat organlari va tashkilotlariga taqdimnoma kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da’vo kiritadi;

(vii) manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

(viii) manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(ix) manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarlik haqida bayonnomani tuzadi va uni ko‘rib chiqish uchun sudga yuboradi;

(k) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish sohasida:

(i) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini muvofiqlashtiradi va doimiy monitoring qilib boradi;

(ii) ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatini takomillashtirib va yangilab borish, shuningdek, ochiqlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik va ularda nazarda tutilgan mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi hamda ularni amalga oshirishga ko‘maklashadi;

(iii) “Ochiqlik indeksi”ni baholash indikator va mezonlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘z vaqtida ochiqlab borish va belgilangan talablar ijro etilishini o‘rganadi, davriy baholab boradi hamda davlat idoralarining bu boradagi faoliyatini yaxshilashga ko‘maklashadi;

(iv) nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o‘tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so‘rovlarini moliyalashtiriladi;

(v) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini joyiga chiqqan holda o‘rganadi va aniqlangan qonunbuzilishi holatlari yuzasidan huquqiy ta’sir choralari qo‘llaydi;

(vi) davlat organlari va tashkilotlaridagi ishonch telefonlarining (Call-markaz) hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e’lon qilingan telefon raqamlarining doimiy ravishda ishchi holatdaligi, ma’lumotlar almashinuvi samaradorligi, qayta aloqaning mavjudligi, shu jumladan, tezkorligi va belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi darajasini “Qayta aloqaning sirli mijozi” tadbirini o‘tkazish orqali tekshiradi;

(l) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish sohasida:

(i) Milliy kengash yig‘ilishlari, kun tartibi hamda dasturlarini ishlab chiqish va ularda belgilangan masalalar yuzasidan tashkiliy choralarni amalga oshiradi;

(ii) Milliy kengash tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar yuzasidan vazifa va topshiriqlarni ishlab chiqish borasida taklif beradi;

(iii) Milliy kengash tomonidan belgilangan vazifa va topshiriqlarning samarali ijro etilishini ta’minlash yuzasidan tashkiliy choralarni amalga oshiradi;

(iv) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘lgan qo‘mitalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining tegishli qo‘mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

(m) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohasida:

(i) mamlakatning imijini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

(ii) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlar va standartlarga muvofiqligini o‘rganadi, shuningdek, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

(iii) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xorijiy davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi va axborot almashinuvini amalga oshiradi;

(iv) BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifasini bajaradi;

(v) Agentlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik shakllarini rivojlantiradi;

(vi) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida xalqaro hamkorlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshiradi;

(vii) xorijiy ekspertlar va xalqaro hamkorlar ishtirokida korrupsiyaning oldini olish sohasida tadqiqot va tahlil ishlarini tashkil etadi;

(viii) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini tashkillashtiradi.

Agentlik qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3. Agentlikning huquqlari

12. Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

(a) budjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish;

(b) o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

(v) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari ko‘rib chiqishi uchun qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari hamda o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalar bo‘yicha takliflar kiritish;

(g) jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

(d) o‘rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘plangan materiallarni faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan shaxslarga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko‘rish, jumladan, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

(j) tadqiqotlar o‘tkazish hamda tahliliy materiallar tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ishchi guruhlarini tuzish;

(z) korrupsiya faktlari to‘g‘risidagi xabarlarni tekshirish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qaror to‘g‘risida ma’lumotni talab qilib olish;

(i) ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;

(k) davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish;

(l) fuqarolarning korrupsiyaga oid murojaatlari va ma’lumotlar yuzasidan tegishli davlat organlarida tekshirishlar o‘tkazish;

(m) o‘ziga yuklatilgan vazifalarni tezkor va o‘z vaqtida bajarish maqsadida vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazasi, ro‘yxati va boshqa ko‘rinishdagi axborot tizimlaridan foydalanish;

(n) davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulklarini deklaratsiyalash qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan qonuniy chora qo‘llash yoki boshqa tegishli choralarni qo‘llash uchun materiallarni vakolatli organlarga yuborish;

(o) korrupsiyaning sabab va shart-sharoitlarini, korrupsiya holatini o‘rganish hamda tahlil qilish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ushlab turilganlarni va qamoqqa olinganlarni saqlash joylari, jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirish va hujjatlar bilan tanishish;

(p) O‘zbekiston Respublikasining obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hamda davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzasidan qonuniy ta’sir choralari ko‘rilishini tashkillashtirish;

(r) o‘z vakolatlari doirasida sudlarga ko‘rib chiqish uchun da’vo arizalar (ariza, shikoyat) kiritish;

(s) davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarni muntazam ravishda buzayotgan aybdor mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib borish.

Agentlik qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart.

4. Agentlik rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlari

14. Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq uning rahbarlari quyidagi funksional majburiyatlarni bajaradi:

(a) Agentlik direktori:

(i) Agentlik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

(ii) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash majlislarida ishtirok etadi va Milliy kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi ta’minlanishiga mas’ul hisoblanadi;

(iii) davlat organlari, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda Agentlik nomidan ish ko‘radi;

(iv) Agentlikning xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

(v) Agentlik direktori o‘rinbosarlari va xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, shuningdek, o‘rinbosarlari va Agentlikning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini hamda shaxsiy javobgarlik darajasini belgilaydi;

(vi) Agentlik hamda davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga tavsiya etadi;

(vii) buyruq, qaror va koʻrsatmalar chiqaradi hamda Agentlikning tarkibiy tuzilmalari toʻgʻrisida nizomlarni, shuningdek, Agentlik faoliyati yuzasidan boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;

(viii) Agentlikning xarajatlar smetasini va belgilangan shtatlar soni doirasida shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

(ix) ijro intizomiga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun hujjatlariga muvofiq koʻrib chiqish muddatlari va tartibiga qat'iy rioya etilishini ta'minlaydi;

(x) Agentlik direktori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Agentlik direktori boʻlmagan vaqtda uning vakolatlari direktorning birinchi oʻrinbosari tomonidan, u boʻlmagan vaqtda esa direktorning boshqa oʻrinbosarlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi;

(b) direktorning oʻrinbosarlari:

(i) Agentlikning zimmasiga yuklatilgan vazifalar boʻyicha soha va yoʻnalishlarni boshqaradi;

(ii) korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning loyihalarini ekspertizadan oʻtkazish va sifatli tayyorlashni tashkil etish masalalari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli boʻlinmalari bilan oʻzaro hamkorlik qiladi;

(iii) Agentlik direktorining topshiriqlariga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish sohasiga oid dasturiy hujjatlarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

(iv) oʻzlari mutasaddilik qilayotgan Agentlik tarkibiy boʻlinmalarida kadrlar zaxirasini shakllantirish boʻyicha ishlarni tizimli asosda tashkillashtiradi;

(v) Agentlik direktori vaqtincha boʻlmaganida uning vazifalarini bajaradi;

(vi) qonun hujjatlari va Agentlik direktorining qarorlariga muvofiq boshqa funksional majburiyatlarni bajaradi.

5. Agentlik faoliyatini tashkil etish

15. Agentlikning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv xodimlarining cheklangan soni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

16. Agentlik direktori boshqaruv xodimlarning belgilangan cheklangan soni va mehnatga haq toʻlash fondi doirasida Agentlikning tuzilmasiga oʻzgartirishlar kiritishi mumkin.

17. Agentlikka Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan saylanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

18. Agentlik direktori lavozimiga nomzod Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi.

19. Agentlik direktori oʻrinbosarlari Agentlik direktori taqdimnomasiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

20. Agentlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilikni keng jalb qilish maqsadida Agentlik

huzurida jamoatchilik kengashi tuziladi. Agentlik huzuridagi jamoatchilik kengashining tarkibi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

21. Agentlikka xodimlarni ishga qabul qilish Agentlik direktori tomonidan belgilangan tartibga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

22. Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlariga xizmat guvohnomasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan, boshqa xodimlarga Agentlik direktori tomonidan beriladi. Agentlik xodimlarining xizmat guvohnomasi shakli Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

23. Xodimlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatida nazarda tutilgan hollarda Agentlikdagi ish faoliyati davrida attestatsiyadan o‘tkaziladi.

24. Agentlik xodimlariga ilgari ishlagan joyida ko‘p yillik mehnati uchun berilgan ustamalar va qo‘shimcha haq, harbiy va maxsus unvonlar (martaba va malaka darajalari, diplomatik darajalar va boshqalar) saqlanib qoladi.

25. Agentlikda ishlagan vaqt harbiy va maxsus unvonlarni (martaba va malaka darajalari, diplomatik darajalar va boshqalar) olish uchun zarur bo‘lgan ish stajiga kiritiladi.

26. Agentlikka lavozimga tayinlangan (yuborilgan) huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘z majburiyatlarini bajarish davrida pul ta’minoti saqlanmagan holda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar kadrlarining amaldagi zaxirasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritiladi.

27. Agentlik xodimlari mehnat faoliyatini to‘xtatganlaridan so‘ng ularga avvalgi ish joyi bo‘yicha egallagan yoki unga teng bo‘lgan lavozim berish kafolatlari ta’minlanadi.

6. Agentlikning davlat organlari va tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

28. Agentlik o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

29. Agentlikning faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan mutasaddilik qilinadi.

7. Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

30. Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

31. Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

(a) Agentlik rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

(b) Agentlik faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

8. Agentlik faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish

32. Quyidagilar Agentlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

(a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

(b) Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

(v) vaqtincha bo‘sh mablag‘larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

(g) qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

33. Har yili O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida alohida modda bilan Agentlik faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag‘lar nazarda tutiladi.

34. Agentlik o‘z vakolatlarini amalga oshirishi uchun zarur moddiy-texnika vositalari va boshqa asbob-uskunalar bilan ta’minlanadi.

35. Agentlikni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg‘arma manbalari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

36. Agentlik xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalardan va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat.

37. Xizmat vazifasini sidqidildan va samarali bajarib kelayotgan Agentlikning yuqori malakali, tashabbuskor xodimlariga yuqori malakasi uchun Agentlik direktori tomonidan Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan shaxsiy ustamalar belgilanishi mumkin.

9. Agentlikning hisobdorligi

38. Agentlik direktori o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlisi palatalariga muntazam ravishda hisobot beradi.

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo‘linmasi Agentlikka yuklangan vazifalar samarali bajarilishi bo‘yicha ular faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Agentlik faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

10. Yakunlovchi qoida

40. Agentlikni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoniga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoni 2-bandi quyidagi mazmundagi o‘n to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“davlat xizmatchilari axloq qoidalariga zid xatti-harakatlar qilishining oldini olishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmonida:

(a) 11-band quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Belgilansinki, davlat organlari va tashkilotlari Ochiqlik indeksini baholash mezonlari va indikatorlarida belgilangan talablar ijrosiga oid ma’lumotlarni (hujjatlarni) Yagona idoralararo axborot tizimiga (platforma) joylashtirib borishi shart”.

(b) 1-ilovada:

(i) 36-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“36. Baholash indikatorlari bo‘yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:
birinchi indikator — maksimal 20 ball;
ikkinchi indikator — maksimal 20 ball;
uchinchi indikator — maksimal 16 ball;
to‘rtinchi indikator — maksimal 6 ball;
beshinchi indikator — maksimal 8 ball;
oltinchi indikator — maksimal 11 ball;
yettinchi indikator — maksimal 15 ball;
sakkizinchi indikator — maksimal 4 ball”;

(ii) 1-ilova quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikaga
1-ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini

BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To‘plangan ball
1	**2**	**3**	**4**
Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar (tadbirlar) **soni**			
1.	6 va undan ortiq tadbir	20	
	5 ta tadbir	18	
	4 ta tadbir	16	
	3 ta tadbir	14	
	2 va undan kam tadbir	0	
Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar soni			
2.	6 va undan ortiq onlayn translyatsiya	20	

	5 ta onlayn translyatsiya	18	
	4 ta onlayn translyatsiya	16	
	3 ta onlayn translyatsiya	14	
	2 va undan kam onlayn translyatsiya	0	
Matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbarlarning ishtiroki			
3.	rahbar ishtirok etsa	20	
	rahbarning birinchi o‘rinbosari ishtirok etsa	18	
	rahbarning o‘rinbosari ishtirok etsa	16	
	rahbarlar ishtirok etmasa	0	
Axborotni yetkazib berish shakli (har oyda kamida bir marta)			
4.	infografika tarzida	20	
	foto, video shaklida	18	
	matn shaklida	16	
	axborot e’lon qilinmasa	0	
Axborotning qamrovi			
5.	radio, televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va veb-saytda e’lon qilinishi	20	
	faqat ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va veb-saytda e’lon qilinishi	18	
	faqat radio, televideniye va gazetada e’lon qilinishi	16	
	radio, televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar yoki veb-saytda e’lon qilinishi	14	
	axborot e’lon qilinmasa	0	
Sohaga oid muammolarni yoritish			
6.	birinchi manba sifatida yoritish	20	
	e’lon qilingan tanqidiy materialga munosabat bildirish	15	
	birinchi manba sifatida yoritmasa yoki e’lon qilingan tanqidiy materialga munosabat bildirmasa	0	
Tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezkorligi			
7.	tanqidiy material e’lon qilingan vaqtdan boshlab 5 soat ichida	20	
	tanqidiy material e’lon qilingan vaqtdan boshlab 12 soat ichida	18	
	tanqidiy material e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida	14	
	tanqidiy material e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soatdan keyin	0	
Tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinishi tezkorligi			
8.	tadbir yakunlangandan keyin 1 soat ichida	20	

	tadbir yakunlangandan keyin 5 soat ichida	18	
	tadbir yakunlangandan keyin 12 soat ichida	14	
	tadbir yakunlangandan keyin 12 soatdan keyin	0	
Rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi			
9.	video formatida	20	
	matn shaklida	15	
	bayonot berilmasa	0	
Xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e’lon qilinishi			
10.	tashkilot faoliyati haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e’lon qilinsa	20	
	tashkilot faoliyati haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e’lon qilinmasa	0	
	Mezonlar soni	**10 ta**	
	Umumiy ball	**200**	
Indikator bo‘yicha ballarni hisoblash tartibi:		$J = \frac{U}{10}$	

Bunda:

U — davlat organi yoki tashkilotining matbuot kotibi tomonidan joriy baholash davrida barcha mezonlar bo‘yicha to‘plangan umumiy ballarning yig‘indisi;

10 — axborot xizmati rahbarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari soni (*joriy baholash davrida to‘plangan ballar baholash mezonlari soniga bo‘linadi*);

J — jami hisoblangan ball (*joriy baholash davrida to‘plangan ballar baholash mezonlari soniga bo‘linganida hosil bo‘lgan ball).*

Izoh.

1. Indikator bo‘yicha to‘plangan umumiy ballar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan jamlanib, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko‘rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtiruvchi organga taqdim qilinadi.

Muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan umumiy to‘plangan ballar indikatorda ko‘rsatilgan mezonlar soniga bo‘linib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

2. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda, o‘z baholash ko‘rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo‘shimcha jadvallarni ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin”.

(iii) 2-ilovada:

“O‘z kuchini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi”, “Tasdiqlangan dasturlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi”, “Dolzarb mavzularga oid ma’lumotlar to‘plamining alohida bo‘limga tizimlashtirilishi” va “Yangi ma’lumotlar bilan interaktiv usulda tanishish imkoni mavjudligi” bo‘limlari chiqarib tashlansin;

22-pozitsiyaning birinchi xatboshisida “Baholash mezonlari” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“imkoniyati cheklangan shaxslarga rasmiy veb-saytdan foydalanish uchun tashkil etilgan xizmatlar (veb-saytdagi matnni tovush jo‘rligida berish imkoniyati, ko‘rish qobiliyati zaiflashgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, standart ranglarni muayyan foydalanuvchi ko‘radigan ranglarga o‘zgartirish imkonini beradigan rangli sozlamalardan foydalanish, shrift va interfeys elementlarini masshtablash) mavjud bo‘lsa”;

“Ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi” bo‘limi chiqarib tashlansin;

“Mezonlar soni” va “Indikatorlar bo‘yicha umumiy ball” pozitsiyalarining “Ballar” ustunidagi “25” raqami tegishincha “20” raqami bilan almashtirilsin;

(iv) 3-ilovada:

1-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

1.	har yili o‘z faoliyatiga oid hisobotlarni rasmiy veb-saytda e’lon qilib, ularni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish talablariga to‘liq rioya qilinsa	1	
	hisobotlar, ularni muhokama joyi va vaqtini e’lon qilish hamda keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o‘tkazish tartibi va muddatlariga rioya qilinmasa	0,5	
	hisobotlar e’lon qilinmasa va matbuot anjumanlari o‘tkazilmasa	0	

”;

“Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma’lumotlarni e’lon qilish”, “Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish holati” bo‘limlari chiqarib tashlansin;

4-pozitsiyaning birinchi xatboshisi “Baholash mezonlari” ustunidagi “ish rejalari” so‘zlaridan keyin “(biznes reja)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

14-pozitsiyaning birinchi xatboshisi “Baholash mezonlari” ustunidagi “xarid komissiyasi” so‘zlari “komissiya” so‘zi bilan almashtirilsin;

“Ochiqlik sohasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi”, “Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi”, “Ochiqlikni ta’minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi” bo‘limlari chiqarib tashlansin;

“Mezonlar soni” va “Indikator bo‘yicha umumiy ball*” pozitsiyalarining “Ballar” ustunidagi “21” raqami tegishincha “16” raqami bilan almashtirilsin.

(v) 5-ilovada:

“Ochiq ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar soni” bo‘limi chiqarib tashlansin;

“Mezonlar soni” pozitsiyaning “Ballar” ustunidagi “5” raqami “10 ta” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“Umumiy ball” pozitsiyaning “Ballar” ustunidagi “10*” raqami “8*” raqami bilan almashtirilsin.

(vi) 6-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikaga
6-ILOVA

Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishini

BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To‘plangan ball
1	**2**	**3**	**4**
Qayta aloqaning tashkil etilganligi			
1.	“Ishonch telefonlari” (Call-markazlar) orqali qayta aloqa tashkil etilib, doimiy faoliyat yuritishi ta’minlansa	2	
	qayta aloqa yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa	0	
Operator bilan bog‘lanish uchun urinishlar soni			
2.	birinchi qo‘ng‘iroqda muvaffaqiyatli bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa	2	
	ikkinchi qo‘ng‘iroqda muvaffaqiyatli bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa	1	
	bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lmasa	0	
Operator bilan bog‘lanish uchun sarflangan vaqt			
3.	240-300 soniyagacha muvaffaqiyatli bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa	2	
	301-420 soniyagacha muvaffaqiyatli bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa	1	
	421 va undan ortiq soniyada bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa	0	
Murojaat yo‘llashning interaktiv usullari tashkil etilganligi			
4.	murojaatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri veb-sayt yoki uning mobil versiyasi orqali yuborish, ko‘rib chiqish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish, shaxsning identifikatsiya ma’lumotlari asosida javob olish, ko‘rib chiqish natijalariga nisbatan munosabat bildirish va baholash imkoniyati mavjud bo‘lsa	2	
	murojaatni yo‘llash va ko‘rib chiqishning interaktiv usullari qisman joriy etilgan bo‘lsa	1	
	murojaat yo‘llashning imkoni mavjud bo‘lmasa	0	
Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog‘i orqali muloqot qilish tizimi yo‘lga qo‘yilganligi			
5.	foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog‘i orqali muloqot qilish uchun maxsus dasturiy ta’minot va uning mobil ilovasi mavjud bo‘lsa	2	

	maxsus dasturiy ta’minot va uning mobil ilovasi ishchi holatda bo‘lmasa	1	
	maxsus dasturiy ta’minot va uning mobil ilovasi mavjud bo‘lmasa	0	
Rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimining tashkil etilganligi			
6.	shaxsan rahbar bilan muloqot qilish va murojaat yo‘llash tizimi tashkil etilgan bo‘lsa	1	
	rahbar o‘rinbosarlari bilan muloqot qilish va murojaat yo‘llash tizimi tashkil etilgan bo‘lsa	0,5	
	muloqot qilish yoki murojaat yo‘llash tizimi yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa	0	
	Mezonlar soni	**6 ta**	
	Umumiy ball	**11**	

Izoh.

1. Indikator baholash mezonlarida ko‘rsatilgan ma’lumot (axborot) va xizmatlar davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-sayti hamda maxsus dasturiy ta’minot vositalari orqali e’lon qilinishi (davlat xizmatini ko‘rsatish) darajasi bo‘yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno).

2. Har bir baholash mezonining birinchi bandida ko‘rsatilgan barcha talablar to‘liq bajarilmagan, hajmining to‘liq emasligi, noto‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanilgan yoki foydalanish imkoniyati talablariga javob bermagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko‘rsatkichidan 1 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo‘yicha to‘plangan umumiy ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamlanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko‘rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtirilib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o‘z baholash ko‘rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo‘shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

** Indikatordagi 2-3-mezonlar bo‘yicha baholash ballarini yakuniy hisoblash tartibi:*

Bunda: $J = \frac{U}{4}$

U — davlat organi yoki tashkilotning baholash yili davomida butun davr uchun to‘plagan umumiy ballarining yig‘indisi;

4 — baholash mezonlarida ko‘rsatilgan talablarni baholash yilining har chorakdagi yig‘indisi (butun davr uchun to‘plagan ballar baholash amalga oshiriladigan davriga bo‘linadi);

J — jami hisoblangan ball (butun davr uchun to‘plagan ballar baholash o‘tkaziladigan davrlarga bo‘linganida hosil bo‘lgan ball)”.

(vi) 7-ilovada:

7-pozitsiyaning “Ballar” ustunidagi “2” va “1” raqamlari tegishincha “1” va “0,5” raqamlari bilan almashtirilsin;

“Umumiy ball” pozitsiyaning “Ballar” ustunidagi “16*” raqami “15*” raqami bilan almashtirilsin;

(vii) 8-ilovada:

1 — 4-pozitsiyalarning “Ballar” ustunidagi “2” va “1” raqamlari tegishincha “1” va “0,5” raqamlari bilan almashtirilsin;


“Umumiy ball” pozitsiyaning “Ballar” ustunidagi “8” raqami “4” raqami bilan almashtirilsin;


(viii) 9-ilovaning “1-bosqich” pozitsiyasi “Tadbirlar” ustunidagi “Internet resurslariga” so‘zlari “Internet resurslari va Yagona idoralararo axborot tizimiga (platforma)” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilmasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

TUZILMASI





Agentlik boshqaruv xodimlarining umumiy soni — 50 nafar”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5263-son qarorining 11-bandi quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“2027-yildan boshlab davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish faoliyatini baholash normativ-huquqiy hujjat loyihalariga nisbatan Adliya vazirligi tomonidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-34-son qarorida:

(a) 2-bandda:

(i) quyidagi mazmundagi oltinchi va yettinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Agentlik hamda davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan materiallar asosida Jinoyat kodeksining 167-moddasi bo‘yicha davlat foydasiga undirilgan moddiy zarar va jarimalar summasining 5 foizi;

Agentlik tomonidan tuzilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar asosida sud tartibida undiriladigan ma’muriy jarimalarning 95 foizi”;

(ii) oltinchi xatboshi sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin;

(b) 1-ilovaning 4-bandida:

(i) quyidagi mazmundagi beshinchi-oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin;

“Agentlik hamda davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan materiallar asosida Jinoyat kodeksining 167-moddasi boʻyicha davlat foydasiga undirilgan moddiy zarar va jarimalar summasining 5 foizi;

Agentlik tomonidan tuzilgan ma’muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi bayonnomalar asosida sud tartibida undiriladigan ma’muriy jarimalarning 95 foizi”;

(ii) beshinchi xatboshi yettinchi xatboshi deb hisoblansin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-81-son qarorida:

(a) 1-bandning birinchi xatboshisidagi “mahalliy davlat hokimiyati organlarida” soʻzlari “mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan xoʻjalik jamiyatlarida” soʻzlari bilan almashtirilsin.

(b) 2-ilovada:

(i) 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Mazkur Nizom barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan xoʻjalik jamiyatlarida (keyingi oʻrinlarda — davlat tashkilotlari) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash (keyingi oʻrinlarda — reyting baholash) tartibini belgilaydi.

Davlat muassasalari faoliyatiga oid ma’lumotlar ushbu bandning birinchi xatboshisida keltirilgan davlat tashkilotlari tomonidan muvofiqlashtirib boriladi”;

(ii) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Reyting baholash yoʻnalishlari boʻyicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:

birinchi yoʻnalish — maksimal 42 ball;

ikkinchi yoʻnalish — maksimal 25 ball;

uchinchi yoʻnalish — maksimal 10 ball;

toʻrtinchi yoʻnalish — maksimal 15 ball;

beshinchi yoʻnalish — maksimal 8 ball”;

(iii) 11-bandning birinchi xatboshisidagi “har chorakda (10-aprel, 10-iyul va 10-oktabrga qadar) choraklik” soʻzlari “har yarim yilda (birinchi yarim yillikda 10-iyulga qadar) yarim yillik” soʻzlari bilan almashtirilsin;

(iv) 17-bandning birinchi xatboshisidagi “iborat boʻlgan” soʻzlari “kam boʻlmagan toq sondan iborat tarkibda” soʻzlari bilan almashtirilsin;

(v) 18-bandning uchinchi xatboshisidagi “3 kishi” soʻzlari “uchdan bir qismi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

(vi) 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini

REYTING BAHOLASH YOʻNALISHLARI VA INDIKATOR KOʻRSATKICHLARI

Birinchi yoʻnalish

Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilgani va amaliyotga tatbiq etilgani (jami — 42 ball)					
Indikatorlar	**Ballar**				**Asos***
1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarning ishlab chiqilgani va o‘z vaqtida yangilab borilishi					
1.1.1. Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi, sifatli to‘ldirilgani va zaruratga qarab yangilanib borilishi: korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; odob-axloq qoidalari; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti; manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom; aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti; xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma; kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma; ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma; korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti; korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish	**TB 3 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Tasdiqlangan hujjatlarning elektron shakli ilova qilinadi

holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament; davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom; sovg‘ani tasarruf etish to‘g‘risidagi nizom; korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish, ularning ta’qibga olinmasligi kafolatlari reglamenti; rotatsiya qilish tartibi. **Izoh.** Mazkur to‘plamdagi hamma hujjatlar qabul qilingan, sifatli to‘ldirilgani va zaruratga qarab yangilangan bo‘lsa, TB, 11 — 14 tasi qabul qilingan, sifatli to‘ldirilgani va zaruratga qarab yangilangan bo‘lsa, AB, 7 — 10 tasi qabul qilingan, sifatli to‘ldirilgani va zaruratga qarab yangilangan bo‘lsa, QB, 0 — 6 tasi qabul qilingan, sifatli to‘ldirilgani va zaruratga qarab yangilangan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Mazkur hujjatlar yagona yoki bir nechta buyruq (qaror) bilan tasdiqlanishi mumkin.					
1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlarning joriy etilgani					
1.2.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari					
1.2.1.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan kamida 4 ta aloqa kanali (masalan, rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil)ning tashkil etilgani, ishchi holatdaligi va korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisobotning o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilgani. **Izoh.** Aloqa kanallari to‘liq, ishchi holatda bo‘lsa va yillik hisobot o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilgan	**TB** **1 ball**		**B** **0 ball**		Davlat tashkilotining rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlar havolasi ilova qilinadi.

bo‘lsa TB, aksincha bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan hisobot davrida o‘tkazilgan “Qayta aloqaning sirli mijozi” tadbiri natijasida taqdimnoma kiritilgan bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi. Hisobot davrida korrupsiyaga oid murojaatlar kelib tushmagan bo‘lsa, bu haqda tasdiqlangan (murojaatlar bilan ishlashga mas’ul bo‘linma rahbari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbari tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi) ma’lumot o‘z rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.			
1.2.2. Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi			
1.2.2.1. Davlat tashkilotining rasmiy veb-saytida bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari, korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlardagi xodimlarning rotatsiyasi to‘g‘risidagi e’lonlar va axborotlarning mavjudligi. **Izoh.** Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlardagi xodimlarning rotatsiyasi to‘g‘risidagi axborotlar hamda hisobot davri davomida o‘sib boruvchi tartibda bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari to‘g‘risidagi e’lonlarning joylashtirilgan sanasi ko‘rsatilgan holda o‘z rasmiy veb-saytida to‘liq va muddatida joylashtirilgan bo‘lsa, TB, to‘liq yoki muddatida joylashtirilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari to‘g‘risidagi e’lonlar: davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan vakant lavozim vujudga kelgandan so‘ng 15 ish kunida;	**TB** **3 ball**	**B** **0 ball**	Davlat tashkilotining rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlar havolasi ilova qilinadi

boshqa tashkilotlar tomonidan tanlov tadbirlari o‘tkazilishidan kamida bir oy oldin tashkilotning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bo‘lsa, muddatida joylashtirilgan deb baholanadi. Hisobot davrida bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari va korrupsiyaga xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlar mavjud bo‘lmasa, 3 ball qo‘yiladi.					
1.2.3. Davlat tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta’minlash					
1.2.3.1. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar. **Izoh.** Hisobot davrida 100 foiz nomzodlar tekshirilgan bo‘lsa, TB, 70 — 99 foizi tekshirilgan bo‘lsa AB, 30 — 69 foizi tekshirilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tekshirilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 3 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri ilova qilinadi
1.2.3.2. Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlar va ularni tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralar. **Izoh.** Mazkur indikator bo‘yicha ballar manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlar va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralarning yetarliligidan (to‘g‘riligi) kelib chiqib, Agentlik tomonidan 0 — 5 ball oralig‘ida belgilanadi. Agar manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjud bo‘lmasa va bu vakolatli davlat organlari tomonidan “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsa, 5 ball qo‘yiladi. Hisobot davrida vakolatli davlat organlari tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha ta’sir ko‘rsatish	**0 — 5 ball**				Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestri, odob-axloq komissiyasi yig‘ilishi bayonnomalari nusxalari ilova qilinadi

choralari qo‘llangan yoki taqdimnomalar kiritilgan bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi.					
1.2.3.3. Kontragentlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar. **Izoh.** Hisobot davrida 100 foiz kontragentlar tekshirilgan bo‘lsa, TB, 70 — 99 foizi tekshirilgan bo‘lsa, AB, 30 — 69 foizi tekshirilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tekshirilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Hisobot davrida davlat nazorati organlari tomonidan davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi (affillanganlik) holatlari bo‘yicha ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llangan yoki taqdimnomalar kiritilgan bo‘lsa, lozim darajada tekshiruv o‘tkazilmagan deb hisoblanadi hamda B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 3 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Hisobot davrida tuzilgan xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risida ma’lumot, kontragentlarni tekshirish reyestri, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobiy va salbiy xulosalar nusxasi ilova qilinadi
1.2.3.4. Davlat tashkilotida sovg‘ani qabul qilish, tasarruf etish tartibining amalga oshirilganligi. **Izoh:** Davlat tashkilotida hisobot davrida xodimga taqdim etilgan sovg‘alarni tasarruf etish masalasi to‘liq hal etilgan va bu haqda o‘z rasmiy veb-saytida sovg‘alar reyestri joylashtirilgan bo‘lsa, TB, aksincha bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Hisobot davrida xodimlar tomonidan qabul qilingan sovg‘alar mavjud bo‘lmasa va bu haqda tasdiqlangan ma’lumot o‘z rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan bo‘lsa, TB ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 1 ball**		**B 0 ball**		Davlat tashkilotining rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlar havolasi ilova qilinadi
1.2.4. Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu tashkilot tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish					

1.2.4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarning mavjudligi va sifatli to‘ldirilgani. **Izoh.** Har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n kunligida Agentlikka hisobotlar taqdim etib kelingan va sifatli to‘ldirilgan bo‘lsa, TB, uchta chorak yakuni bo‘yicha belgilangan muddatda taqdim etilgan va sifatli to‘ldirilgan bo‘lsa, QB, kamida uchta chorak yakuni bo‘yicha belgilangan muddatda taqdim etilmagan yoki sifatli to‘ldirilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n kunligida taqdim etilmagan bo‘lsa, baholash jarayonlarida hisobot taqdim etilmagan deb qaraladi.	**TB 3 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqidagi hisobot ilova qilinadi
1.2.4.2. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha rejadagi tadbirlarning bajarilgani. **Izoh.** Mazkur indikator bo‘yicha ballar rejaning belgilangan muddatlarda tasdiqlanganligi, ulardagi tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilganidan kelib chiqib, 0 — 5 ball oralig‘ida belgilanadi. Tashkilot rahbari tomonidan hisobot davri uchun har yili yanvar oyida tasdiqlangan reja asosida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Monitoring tadbirlari yo‘nalishi: idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi — doimiy ravishda; OAVda tashkilot xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari	**0 — 5 ball**			Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olgan), korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish jurnali va uning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi

to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi — doimiy ravishda;

tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligi monitoringi — yarim yilda 1-marta;

Nazorat tadbirlari yo‘nalishi:

korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari, “yo‘l xaritalari” ijrosi ustidan nazorat — har chorakda;

korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat — har chorakda.

Bunda:

T/r	Ko‘rilgan chora	Ball
1.	Barchasi to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa	5 ball
2.	Reja belgilangan muddatda tasdiqlangan, monitoring va nazorat tadbirlari o‘z vaqtida (to‘liq) o‘tkazilgan, lekin yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarning sifatli bajarilishida qisman kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa	3 ball
3.	Reja kechiktirib tasdiqlangan yoki muddatida tasdiqlangan bo‘lib, monitoring va nazorat tadbirlari o‘z vaqtida o‘tkazilmagan yoxud yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha 2 va undan ortiq chora-tadbirlar sifatli bajarilmagan bo‘lsa	1 ball
4.	Reja tasdiqlanmagan yoki monitoring va nazorat tadbirlari to‘liq o‘tkazilmagan bo‘lsa	0 ball

1.2.4.3. Davlat tashkiloti tomonidan moliyaviy mablag‘lardan (budjet, budjetdan tashqari va o‘z	**TB 5 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Nazorat tadbirlari natijasi bo‘yicha ma’lumot

mablag‘lari) foydalanish ustidan ichki nazorat tadbirlarining o‘tkazilishi va samaradorligi. Nazorat tadbirlari: hisobot davrida kamida 2-marta o‘tkazilishi; tashkilotning markaziy apparati tomonidan o‘tkazilishi; budjetdan ajratiladigan mablag‘lar, budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari, o‘z mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq nazorat tadbirlari inobatga olinadi. **Izoh.** Mazkur indikator bo‘yicha ballar Agentlik tomonidan, davlat tashkiloti faoliyatida o‘z mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘yicha reja va rejadan tashqari nazorat tadbirlari (korrupsiyaga qarshi qabul qilingan ichki tartib-qoidalar va qonunchilik hujjatlari buzilishi) o‘tkazilgani, ularning natijasida aniqlangan holatlar (qoidabuzarlik turi va yetkazilgan zarar summasi), oldi olingan va undirilgan mablag‘lar (zarar summalari) hamda ular bo‘yicha ko‘rilgan korrupsiyaning oldini olish choralaridan kelib chiqib, 0 — 5 ball oralig‘ida belgilanadi. Nazorat tadbirlari kamida 2-marta o‘tkazilgan hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlari tasdiqlanib, ular bo‘yicha vazifalar to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa, TB, nazorat tadbirlari kamida 2-marta o‘tkazilgan hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlanib, qisman amalga oshirilgan bo‘lsa AB, nazorat tadbirlari kamida 2-marta o‘tkazilgan hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlanib, amalga oshirilmagan bo‘lsa yoki chora-tadbirlar tasdiqlanmagan bo‘lsa, QB, nazorat tadbirlari kamida 2-marta					(aniqlangan holat, har bir holat bo‘yicha qoidabuzarlik turi va yetkazilgan zarar summasi, oldi olingan va undirilgan zarar summalari alohida ko‘rsatiladi), nazorat tadbirlari dalolatnomalari, aniqlangan holatlarning oldini olish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar hamda ularni amalga oshirilganini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi

o‘tkazilmagan yoki nazorat tadbirlarida tashqi organlar tomonidan jiddiy moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlangan bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi. Nazorat tadbirlari kamida 2-marta o‘tkazilib, holatlar aniqlanmagan hamda tashqi organlar tomonidan nazorat tadbirlari (tekshirish, o‘rganish, monitoring va boshqa tadbirlar) o‘tkazilib, moliyaviy qonunbuzarlik holatlari aniqlanmaganligi o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsa, 4 ball qo‘yiladi.					
1.2.4.4. Davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni, shu jumladan, maishiy korrupsiyani bartaraf etish choralarining ko‘rilgani. **Izoh.** Agentlik, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning taqdimnomalari, sud organlarining xususiy ajrimlar bo‘yicha korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumot mavjud bo‘lsa va ular bo‘yicha zarur choralar to‘liq ko‘rilgan bo‘lsa, TB, tahliliy ma’lumot mavjud bo‘lmasa yoki choralar to‘liq ko‘rilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Agar hisobot davrida taqdimnomalar, xususiy ajrimlar kelib tushmagan bo‘lsa, 1 ball qo‘yiladi.	**TB** **2 ball**		**B** **0 ball**		Davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga olgan tahliliy ma’lumot va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi
1.2.4.5. Davlat tashkilotida korrupsiyaga oid jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud holatlarni aniqlash ko‘rsatkichi. **Izoh.** Quyidagi formula orqali aniqlanadi: A / (A+B) *100 Bunda A — davlat tashkiloti tomonidan aniqlanib, tegishli	**TB** **3** **ball**	**AB** **2** **ball**	**QB** **1** **ball**	**B** **0** **ball**	Davlat tashkiloti tomonidan va boshqa tashkilotlarning ma’lumotlari asosida aniqlangan korrupsiyaga oid jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar alomatlari mavjud holatlar soni va

tashkilotlarga yuborilgan holatlar soni, B — boshqa tashkilotlarning ma’lumotlari asosida aniqlangan holatlar soni. Agar boshqa tashkilotlar tomonidan holatlar aniqlanmagan bo‘lsa, 3 ball beriladi. Davlat tashkiloti tomonidan aniqlangan holatlarning boshqa tashkilotlar tomonidan aniqlangan holatlar soniga nisbati 100 foiz bo‘lsa, TB, 70-99 foiz bo‘lsa, AB, 30-69 foiz bo‘lsa, QB, 0-29 foiz bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.					tegishli tashkilotlarga yuborilgan asos hujjatlar to‘g‘risida ma’lumot, xizmat tekshiruvlari reyestri nusxasi ilova qilinadi
1.2.4.6. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid odob-axloq qoidalari buzilish holatlarining davlat tashkiloti tomonidan aniqlanish ko‘rsatkichi. **Izoh.** Quyidagi formula orqali aniqlanadi: A / (A+B) *100 Bunda A — davlat tashkiloti tomonidan aniqlanib, intizomiy jazoga tortilgan holatlar soni, B — boshqa tashkilotlarning ma’lumotlari asosida aniqlanib, intizomiy jazoga tortilgan holatlar soni. Agar boshqa tashkilotlar tomonidan holatlar aniqlanmagan bo‘lsa, 3 ball beriladi. Davlat tashkiloti tomonidan aniqlanib, intizomiy jazoga tortilgan holatlarning boshqa tashkilotlar tomonidan aniqlanib, intizomiy jazoga tortilgan holatlar soniga nisbati 100 foiz bo‘lsa, TB, 70-99 foiz bo‘lsa, AB, 30-69 foiz bo‘lsa, QB, 0-29 foiz bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Odob-axloq qoidalari buzilishi intizomiy qilmish aniqlangan sanadan emas, balki intizomiy jazo qo‘llanishi tasdiqlangan sanadan boshlab tatbiq etiladi.	**TB 3 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Davlat tashkilotida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid intizomiy jazo choralari qo‘llangan holatlar (davlat tashkiloti va boshqa tashkilotlarning ma’lumotlari asosida aniqlangan holatlar kesimida) soni va intizomiy jazo choralari qo‘llangan xodimlar to‘g‘risida kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ma’lumot, xizmat tekshiruvlari reyestri nusxasi ilova qilinadi

1.2.4.7. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat tashkiloti faoliyatining samaradorligini o‘rganish maqsadida xodimlar o‘rtasida anonim so‘rovnomalar o‘tkazilgani va natijalari korrupsiyaga qarshi idoraviy rejalarda aks ettirilgani. Tashkilot o‘z faoliyatining samaradorligini baholash uchun xodimlar o‘rtasida har yili kamida bir marotaba quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha anonim so‘rovnoma o‘tkazishi lozim: korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarning samaradorligi; tashkilot rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini ko‘rsatuvchi xatti-harakatlari va irodasining mavjudligi; aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligi; korrupsiya haqida xabar bergan xodimlarni himoya qilish kafolati yetarliligi. **Izoh.** So‘rovnoma barcha yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilib, uning natijalari korrupsiyaga qarshi idoraviy rejalarda aks ettirilgan va hisobot o‘z rasmiy veb-saytida mavjud bo‘lsa, TB, barcha yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilmagan yoki korrupsiyaga qarshi idoraviy rejalarda aks ettirilmagan yoxud hisobot o‘z rasmiy veb-saytida mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB** **2 ball**	**B** **0 ball**	So‘rovnoma natijalari aks ettirilgan korrupsiyaga qarshi idoraviy rejalar, rasmiy veb-saytidagi hisobot havolasi ilova qilinadi
Ikkinchi yo‘nalish			
Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilgani **(jami — 25 ball)**			
Indikatorlar	**Ballar**		

2.1. Davlat tashkilotining funksiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholash o‘tkazilganligi.

Izoh. Ko‘rilgan choralardan kelib chiqib, quyidagi 3 ta bosqichda baholanadi:

1. Birinchi bosqich quyidagi ustuvor choralar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardan kelib chiqib, 0 — 6 ball oralig‘ida baholanadi:

vazifa va funksiyalar bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi xolis baholangani;

barcha vazifa va funksiyalar to‘liq qamrab olingani;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar sifatli (aniq va manzilli) belgilangani.

Bunda

T/r	Ko‘rilgan chora	Ball
1.	Barchasi amalga oshirilgan bo‘lsa	6 ball
2.	Vazifa va funksiyalar bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi xolis baholangan, barcha vazifa va funksiyalar to‘liq qamrab olingan, lekin korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar sifatli (aniq va manzilli) belgilanmagan bo‘lsa	4 ball
3.	Barcha vazifa va funksiyalar to‘liq qamrab olingan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar sifatli (aniq va manzilli) belgilangan bo‘lsa, lekin vazifa va funksiyalar bilan	3 ball

0 — 10 ball

Davlat tashkilotining umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati ilova qilinadi

	bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi xolis baholanmagan bo‘lsa	
4.	Vazifa va funksiyalar bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi xolis baholangan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar sifatli (aniq va manzilli) belgilangan, lekin barcha vazifa va funksiyalar to‘liq qamrab olinmagan bo‘lsa	2 ball
5.	1 tasi bo‘yicha to‘liq amalga oshirilgan yoki Agentlikning ogohlantirish /taqdimnomasi kiritilgandan so‘ng yuqoridagi mezonlar bo‘yicha to‘liq yoki qisman amalga oshirilgan bo‘lsa	1 ball
6.	Amalga oshirilmagan bo‘lsa	0 ball

2. Ikkinchi bosqich quyidagi choralar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardan kelib chiqib, 0 — 3 ball oralig‘ida baholanadi:

vazifa va funksiyalar bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi to‘liq va aniq yoritilgani;

funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga oid lavozimlar va tartibga soluvchi mexanizmlar to‘liq aks ettirilgani;

korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarini amalga oshirishga mas’ul ijrochilar to‘liq qamrab olingani va muddatlari aniq belgilangani.

Bunda choralarning barchasi to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa, 3 ball, 2 tasi

amalga oshirilgan bo‘lsa, 2 ball, 1 tasi amalga oshirilgan bo‘lsa, 1 ball, amalga oshirilmagan bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi. 3. Uchinchi bosqichda davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati sifatli va to‘liq shakllantirilgan bo‘lsa, 1 ball, sifatli va to‘liq bo‘lmasa 0 ball qo‘yiladi.			
2.2. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar. **Izoh.** Mazkur indikator bo‘yicha ballar aniqlangan xavf-xatar va minimallashtirish uchun ko‘rilgan choralar tabiatidan kelib chiqib, Agentlik tomonidan 0 — 15 ball oralig‘ida belgilanadi.	**0 — 15 ball**		Davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi va uning bandlari ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi
Uchinchi yo‘nalish			
Davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi (jami — 10 ball)			
3.1. Davlat tashkiloti rahbarining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatining mavjudligi, hay’at yig‘ilishlari va boshqa yig‘ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlarining yarim yilda kamida 1-marta tanqidiy ko‘rib chiqilgani. **Izoh.** Mavjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB** **2 ball**	**B** **0 ball**	Davlat tashkilotining rasmiy veb-saytida murojaat e’lon qilingan manba havolasi, tegishli hay’at yig‘ilishlari va boshqa yig‘ilishlar bayonnomasi ilova qilinadi
3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan minimal mezonlar asosida ichki nazorat tuzilmasi (yoki mas’ul lavozimi) tashkil etilgani, uning mustaqilligi, zarur resurslar bilan ta’minlangani. **Izoh.** Mazkur indikator bo‘yicha ballar Agentlik tomonidan, korrupsiyaga qarshi kurashish	**0 — 6 ball**		Elektron platformada chek-list to‘ldiriladi

bo‘yicha ichki nazorat tuzilmalari (yoki mas’ul lavozimlari) orasida elektron platformada to‘ldiriladigan chek-list natijalaridan kelib chiqib, 0 — 6 ball oralig‘ida belgilanadi. Ballar quyidagicha taqsimlanadi: 1. Minimal mezonlarga asosan tashkilotning markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari va tarkibiy tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (yoki mas’ul lavozimlari) to‘liq tashkil etilgan bo‘lsa, 4 ball, qisman tashkil etilgan bo‘lsa 2 ball, tashkil etilmagan bo‘lsa 0 ball. 2. Minimal mezonlar asosida to‘liq tashkil etilib, mustaqilligi (bevosita tashkilotning birinchi rahbariga (kuzatuv kengashiga) bo‘ysunuvi va hisobdorligi, funksional jihatdan boshqa tuzilmalarga bog‘liq emas) to‘liq ta’minlangan bo‘lsa, 1 ball, aks holda 0 ball. 3. Minimal mezonlar asosida to‘liq tashkil etilib, zarur resurslar (texnik, tashkiliy va insoniy resurslar) bilan to‘liq ta’minlangan bo‘lsa, 1 ball, aks holda 0 ball.				
3.3. Davlat tashkiloti rahbari va ularning o‘rinbosarlarining korrupsiyaga moyil sohalarni takomillashtirish, halollikni targ‘ib qilish, manfaatdor tomonlar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishdagi shaxsiy faolligi. Davlat tashkiloti rahbariyati (rahbar va o‘rinbosarlar) tomonidan quyidagi shakllarda shaxsiy ishtirok va yetakchilik faoliyati amalga oshirilgan bo‘lishi lozim: korrupsiyaga moyil jarayonlar bo‘yicha ishchi guruh (komissiya) tashkil etilishi va bevosita rahbarlik qilish;	**TB** **2 ball**	**AB** **1** **ball**	**B** **0 ball**	Tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi

ichki xodimlar bilan halollik, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish masalalari yuzasidan muntazam uchrashuvlar o‘tkazilishi; tashqi manfaatdor tomonlar (OAV, jamoatchilik, NNT) bilan ochiq muloqot tashkil etilishi; korrupsiya haqida xabar berishni targ‘ib qilinishi va xabar bergan xodimlarning rag‘batlantirilishi; korrupsiyaga qarshi tashviqot ishlarining (veb-saytdagi e’lonlar, maqolalar va boshqalar) olib borilishi. **Izoh.** Kamida to‘rt shaklda amalga oshirilgan va bu faoliyat dalillar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, TB, uch yoki ikki shaklda amalga oshirilgan va bu faoliyat dalillar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, AB, ikki shakldan kam bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.					
To‘rtinchi yo‘nalish					
Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilgani (jami — 15 ball)					
4.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki tartib-taomillardan xabardorligi					
4.1.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar va korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganlik holati. **Izoh.** Barcha xodimlar tanishtirilgan bo‘lsa, TB, 70 — 99 foizi tanishtirilgan bo‘lsa, AB, 30 — 69 foizi tanishtirilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tanishtirilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 5 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar va korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro‘yxati ilova qilinadi**
4.2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirishga					

qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilgani					
4.2.1. Hisobot yilida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarida o‘qitilgani. **Izoh.** Barcha xodimlar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar to‘liq o‘qitilib, maxsus o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan xodimlar 100 foiz bo‘lsa, TB, 80 — 99 foiz bo‘lsa, AB, 40 — 79 foiz bo‘lsa, QB, 0 — 39 foiz bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Bunda har uch yilda kamida bir marta malakasi oshirilishi lozim bo‘lgan davlat xizmati lavozimlarida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar soni Agentlik hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan tasdiqlangan yillik o‘qitish reja-grafigi asosida maxsus o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan xodimlar ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.	**TB 3 ball**	**AB 2 ball**	**QB 1 ball**	**B 0 ball**	Hisobot yilida maxsus o‘quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan xodimlarning kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxati (xodimlar F.I.O., ularning lavozimi va bo‘linmalari, o‘qitilgan sanasi, sertifikat raqami) jadval shaklida ilova qilinadi
4.2.2. Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kursida o‘qitilgani. **Izoh.** Ishga qabul qilingan xodimlar to‘liq o‘qitilgan bo‘lsa, TB, to‘liq bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 2 ball**		**B 0 ball**		Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kursida o‘qitilgani to‘g‘risida kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat (xodimlarning F.I.O., ularning lavozimi, bo‘linmalari, ishga qabul qilingan va o‘qitilgan sanasi, sertifikat raqami) jadval shaklida ilova qilinadi

4.2.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo‘lgan funksiyalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun. **Izoh:** xodimlarning 70 — 100 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, TB, 50 — 69 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, AB, 30 — 49 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB 5 ball**	**AB 3 ball**	**QB 2 ball**	**B 0 ball**	Kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan o‘qitish turlari, shakllari, o‘qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo‘linmalari ro‘yxati jadval shaklida va ularni tasdiqlovchi bayonnomalar ilova qilinadi
Beshinchi yo‘nalish					
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi **(jami — 8 ball)**					
5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlar soni va ularning qamrov darajasi. **Izoh.** Mazkur indikatorda oldingi hisobot yilidagi ko‘rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda o‘tkazilgan tadbirlar soni va qamrov darajasida (ishtirokchilar soni) ijobiy farq bo‘lsa yoki o‘zgarish bo‘lmasa, TB, tadbirlar soni yoki qamrov darajasida (ishtirokchilar soni) kamayish bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Bunda davlat xizmatchilari uchun tashkil etilgan tadbirlar (seminar, trening, yig‘ilish va boshqalar) bu indikatorga kiritilmaydi.	**TB 2 ball**		**B 0 ball**		Statistik ma’lumotlar, tadbir bayonnomalari, rasmiy veb-saytidagi havolalari ilova qilinadi
5.2. Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ko‘rgazmali axborot materiallari (videorolik, infografika va boshqalar) va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgani. Davlat tashkiloti tomonidan o‘z faoliyati doirasida: raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish, ochiq davlat xizmatlari, manfaatlar to‘qnashuvining oldini	**TB 2 ball**	**AB 1 ball**	**B 0 ball**		Statistik ma’lumotlar, har bir material bo‘yicha hujjatlar, davlat tashkilotining rasmiy veb-saytidagi materiallar havolasi ilova qilinadi

olish va korrupsiyani profilaktika qilishga oid yo‘nalishlarda; videorolik, infografika, elektron broshyura, plakat, metodik qo‘llanma kabi ko‘rgazmali materiallar ishlab chiqilgan va yangilangan bo‘lishi; ular tashkilot rasmiy veb-saytida maxsus rukn ostida joylashtirilgan bo‘lishi lozim. **Izoh.** Mazkur indikatorda oldingi hisobot yilidagi ko‘rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda ishlab chiqilgan materiallar sonida ijobiy farq bo‘lsa yoki o‘zgarish bo‘lmasa hamda ular to‘liq tashkilotning o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bo‘lsa, TB, materiallar soni o‘zgarmagan, lekin saytga to‘liq joylashtirilmagan bo‘lsa, AB, tarqatilgan materiallar sonida kamayish bo‘lsa yoki o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi. Har bir material: nomi, mavzusi, sanasi, auditoriyasi, fayl nusxasi yoki havola bilan hujjatlashtiriladi. Baholashda “faoliyatga oidlik” va “axborot yaroqliligi” mezonlari ham hisobga olinadi. Agar tashkilot faoliyatida faqat ichki xodimlarga mo‘ljallangan materiallar mavjud bo‘lsa — ular hisobga olinmaydi.				
5.3. Aholi va keng jamoatchilik fikrini o‘rganish orqali davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilgani va natijalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgani. Davlat tashkiloti tomonidan har yili ikki marta (yarim yillik asosda) quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilishi lozim: tashkilot faoliyatida korrupsiya xavfi bo‘yicha jamoatchilik fikri;	**TB** **2 ball**		**B** **0 ball**	So‘rovnoma natijalari bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga olgan hisobotning o‘z rasmiy veb-saytidagi havolasi ilova qilinadi

aholining ishonch darajasi; xabar berish imkoniyati, xodimlarning odob-axloq darajasi, xizmatlar sifati; korrupsiyaning oldini olish choralari samaradorligi bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. **Izoh.** Har yarim yilda kamida bir marta so‘rovnoma o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan, hisobot esa o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bo‘lsa, TB, har yarim yilda bir marta o‘tkazilmagan yoki takliflar ishlab chiqilmagan yoxud uning natijalari bo‘yicha hisobot o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.			
5.4. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik doirasidagi hamkorligining mavjudligi. **Izoh.** Mavjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	**TB** **2 ball**	**B** **0 ball**	Ma’lumotlar va materiallar havolasi ilova qilinadi

Izoh:

1. Tizimga davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o‘zga xil ma’lumotlarni kiritish taqiqlanadi.

Davlat tashkiloti tomonidan mazkur ma’lumotlar reyting baholashga ta’sir o‘tkazadi deb hisoblansa, tegishli indikator ko‘rsatkichlarini baholash Agentlikning belgilangan ruxsatnomaga ega bo‘lgan xodimi tomonidan o‘sha tashkilotga borib amalga oshiriladi.

2. Davlat tashkilotlari tegishli ustunlarga “x” belgisini qo‘ygandan keyin uni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa materiallarni “E-Anticor.uz” elektron platformasiga biriktirishi lozim. Tegishli ma’lumotlar biriktirilmagan taqdirda, platformada avtomatik ravishda eng past ball qo‘yiladi.

* Agentlik talabiga ko‘ra tegishli hujjat yoki materiallar qo‘shimcha biriktiriladi va havolalar ko‘rsatiladi.

** Agentlik tanlov asosida xodimlarning korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlardan xabardorligi bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda suhbat o‘tkazishi mumkin”.

(vii) 2-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	**Mas’ullar**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Agentlik)	1. Reyting baholashdan o‘tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari) ro‘yxatini tuzadi. 2. Ro‘yxatga kiritilgan davlat tashkilotlariga “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali tegishli ma’lumotlarni kiritish to‘g‘risida xat kiritadi.	Har yili 5-yanvarga qadar
2-bosqich	Davlat tashkilotlari	“E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yo‘nalishlari va indikator ko‘rsatkichlari jadvalini to‘ldirish orqali ma’lumot kiritib boradi.	Har yarim yillikda (10-iyulga qadar)
3-bosqich	Agentlik	1. Davlat tashkilotlari tomonidan “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritilgan ma’lumotlarni tahlil qilib boradi. 2. Yakuniy reyting baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilishi mumkin bo‘lgan davlat organlariga tavsiyalar kiritadi,	Muntazam ravishda

		ularga uslubiy jihatdan ko‘maklashadi.	
4-bosqich	Davlat tashkilotlari	“E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali yillik (oldingi yilning 1-yanvaridan baholanish o‘tkazilayotgan yilning 1-yanvariga qadar) ma’lumotlarni kiritadi.	Har yili 10-yanvardan kechiktirmasdan
5-bosqich	Agentlik	Yillik ma’lumotlar kiritilgandan keyin tanlov asosida tegishli davlat tashkilotlari ma’lumotlarining haqqoniyligini o‘rganadi.	Har yili 1-fevralga qadar
6-bosqich	Agentlik	Shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalarini Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi (keyingi o‘rinlarda — Ekspertlar guruhi)ga taqdim etadi.	Har yili 5-fevralga qadar
7-bosqich	Ekspertlar guruhi	Agentlik tomonidan shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi va quyidagilardan birini Agentlikka taqdim etadi: dastlabki reyting baholash natijalarini o‘zgarishsiz qoldirish yoki qisman o‘zgartirish haqida xulosa; muqobil reyting baholash natijalari.	Har yili 15-fevralga qadar
8-bosqich	Agentlik	1. Ekspertlar guruhi xulosasi (yoki muqobil reyting baholash natijasi)ni puxta tahlil qiladi va unga ko‘ra dastlabki reytingni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.	

	Davlat tashkilotlari	2. Har bir davlat tashkilotiga uning reyting baholash natijasi haqidagi ma’lumotni yuboradi. 3. Davlat tashkilotlari o‘z reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi, taklif va e’tirozlarini Agentlikka yuboradi. 4. Agentlik davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan taklif va e’tirozlarni puxta tahlil qiladi va reyting baholashni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.	Har yili 20-fevralga qadar Har yili 25-fevralga qadar Har yili 1-martga qadar
9-bosqich	Agentlik	Yakuniy reyting natijalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga kiritadi hamda o‘z rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qiladi.	Har yili 1-mart
10-bosqich	Agentlik Davlat tashkilotlari	1. Reyting baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarli” deb topilgan davlat tashkilotlariga samaradorlikni yanada oshirish bo‘yicha tavsiyalar kiritadi. 2. Agentlik tomonidan kiritilgan tavsiyalar ijrosi bo‘yicha ma’lumotlarni “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritib boradi.	Har yili 15-martga qadar Belgilangan muddatlarda
11-bosqich	Davlat tashkilotlari Agentlik	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va uni	Har yili 20-martga qadar

		Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish choralarini ko‘radi.	Belgilangan muddatlarda

”.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 06/25/270/1252-son)